



«O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI» FANINI O‘QITISHDA TARIX O‘QITUVCHILARINING KASBIY METODIK TAYYORGARLIGI AHAMIYATI

Seytmuratov E.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi va chorvachilik biotexnologiyalari
universiteti Nukus filiali, «Iqtisodiyot va gumanitar fanlar»
kafedrasida tadqiqotchisi*

Tayansh so‘zlar: tarix, talaba, hodisa, voqea, jarayon, o‘qituvchi, innovatsiya, interfaol.

Ключевые слова: история, студент, событие, процесс, преподаватель, инновация, интерактив.

Key words: history, student, event, event, process, teacher, innovation, interactive.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fanini o‘qitishda tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligi ahamiyati haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье описывается значение профессиональной методической подготовки учителей истории при преподавании предмета «Новейшая история Узбекистана».

SUMMARY:

The article describes the importance of professional methodological training of history teachers when teaching the subject “Modern history of Uzbekistan”.

Mamlakatimizda oliy ta’limning maqsadlaridan biri talabalarning nazariy bilim olishi davrida falsafiy malaka va muayyan ko‘nikmalar asosida intellektual madaniyatini shakllantirish orqali jahon standartlariga javob beradigan kadrlarni tarbiyalashdir. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatini sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish», shuningdek, «yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ruyobga chiqarish» [1] ustuvor vazifalar qilib belgilandi. Bu esa, ilg‘or xorijiy tajribalarni oliy ta’limga keng joriy etish, talabalarning intellektual faollik darajasini baholashning milliy tizimini



takomillashtirish, ularda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion usullarini ishlab chiqish, texnologik bosqichlarini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Tarix o'qituvchilarining pedagogik mahorati, pedagogik faoliyati, o'qitish texnologiyasi va metodikasi, hamkorlikda o'qitish, tarix ta'limining taraqqiy etish bosqichlari, kasbiy metodik tayyorgarlikni shakllantirish tamoyillari, tarixiy adabiyotlar, uslubiy adabiyotlar tahlili bo'yicha tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan tarix o'qitish nazariyasi, tarix o'qituvchisining faoliyat tuzilmasi, kasbiy sifatlari, kasbiy tayyorgarligi, pedagogik qobiliyati, kasbiy kompetentligi, kasbiy faoliyatini rivojlantirish hamda rivojlantiruvchi ta'lim metodikalari asosida dasturli ta'lim, metodik tizim, kasbiy metodik yo'naltirilganlik, tarix o'qitish vositalari, ilmiy asosli adabiyotlarni takomillashtirish zaruriyatini izohlaydi.

Tarix o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashga yangicha yondashuvlarni yaratish muammolariga L.N.Aleksashina, P.A.Baranov, O.G'.Davlatov, A.F.Ismailov, Q.R.Shonazarov, J.Anderson va boshqalar ishlari bag'ishlangan.


Adabiyotlarni tahlil etish jarayonida, birinchidan, «kompetentlik» tushunchasining falsafiy va psixologik lug'atlardagi talqini aniqlandi hamda psixologik-pedagogik adabiyotlarda «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalarining tariflari o'rganib chiqildi. «Kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarini farqlash uchun mazkur tushunchalar, atamalar lug'atida, boshqaruv bo'yicha atamalar lug'ati va boshqalarda qanday ifodalanganligi tahlil qilindi.

«Kompetensiya» tushunchasi lug'atlarda muayyan organ yoki mansabdor shaxsning qonun bilan, mazkur organ ustavi yoki boshqa qoidalar ilan yelgilangan vakolatlari (huquq va majuriyatlari) yig'indisi yoki kimdir yaxshi xaardor o'lgan masalalar sohasi sifatida turlicha talqin etiladi [3].

Turli soha vakillari tomonidan tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, kadrlar tayyorlash tizimini axborotlashtirish sharoitida tarix o'qituvchilarning kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish hozirgi globallashtirish, fan va texnika, zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti jarayonida ta'limiy innovatsion texnologiyalarni yanada takomillashtirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan [2].

Tadqiqotlarimiz natijasida kompetentlik quyidagi sifatlarga ajratildi (1-rasm).

- maxsus kompetentlik – malakani kasbiy faoliyat ko'nikmalarini yetarli yuqori darajada egallash, ularning keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtirish qobiliyati;



1-rasm. Kompetentlik sifatlari

- ijtimoiy kompetentlik – uyushma (guruh, jamoa) kasbiy faoliyatiga, hamkorlikka, shuningdek, kasbda qabul qilingan professional muloqat usullariga ega bo‘lish; kasbiy faoliyati natijalari bo‘yicha ijtimoiy mas’uliyat;

- shaxsiy kompetentlik – shaxsiy o‘zini namoyon etish va o‘zini o‘zi rivojlantirish texnikasi, professional shaxsning deformatsiyalarga qarshi turish vositalari;

- individual kompetentlik – kasb doirasida o‘zini o‘zi anglash va shaxsiy rivojlanish usullarini o‘zlashtirish, kasbiy tayyor bo‘lish, shaxsiy o‘zini himoya qilish qobiliyatidir.

Maqolamizda tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik ishlarini loyihalashtirish va amalga oshirishga zamonaviy konseptual yondashuvlar tahlili zamonaviy bosqichda qator kamchiliklarning mavjudligini ko‘rsatamiz:

- o‘quv jarayonida tarix o‘qituvchilarini ilmiy ijodga jalb etishning nazariy va amaliy jihatlari yetarli ishlab chiqilmagan;

- murakkablik darajasi o‘sib boruvchi tadqiqot loyiha vazifalaridan tashkil topgan kasbiy metodik ishi dasturlari deyarli ishlab chiqilmagan;

- tarix o‘qituvchilari tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘qitishning innovatsion shakllari va metodlari yetarlicha to‘liq qo‘llanilmagan.

Shuningdek, tarix o‘qituvchisining kasbiy metodik ishlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- uzluksiz ta‘lim amaliyotida tarix o‘qituvchisining ilmiy ijodga jalb metodikasiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni muvofiqlashtirish;

- tarix o‘qituvchisining kasbiy metodik ishlarini takomillashtirish vositalarini izlashning ob‘ektiv zarurati va oliy ta‘limda mazkur ilmiy asosda ishlab chiqish;

- tarix o‘qituvchilarining tadqiqotchilik vazifalaridan foydalanishning mavjud amaliyoti va tizimli metodologik asoslari hamda mos ta‘limiy integrativ texnologiyalarni ishlab chiqish va jarayonga tatbiq etish.

O‘qituvchining kasbiy kompetentligining asosiy komponentlari orasida tadqiqotchilik komponenti alohida o‘rin egallaydi. Tadqiqotchilik komponenti



mutaxassislarning nafaqat asosiy bilimlar va ko'nikmalarini egallashlarini, balki izlanishlar, tadqiqotchilik xususiyatidagi ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilimlarni ham egallashni ko'zda tutadi. Mutaxassisning tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishni biz nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning yuqori darajasining, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarining mavjudligini talab etuvchi tadqiqot faoliyatiga tayyorgarlik sifatida belgilaymiz.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.
2. Азимов А.А. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг касбий компетентлигини компютер технологияларидан фойдаланиб такомиллаштириш: пед.фан.бўй.фалс.докт. (PhD) дисс.автореферати. –Қарши, 2021. –Б. 8.
3. Собирова М.Н. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг касбий компетентлигини ривожлантириш: пед.фан.бўй.фалс.докт. (PhD) дисс.автореферати. –Наманган, 2022. –Б. 7.